NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-10]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

YOSHLAR HUQUQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBA: FALSAFIY QIYOSIY TAHLILI

Saitxodjayev Xusan Bekjanovich
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Quruqlikdagi qo‘shinlar instituti Milliy iftixor va vatanparvarlik fanlari kafedrasi professori, falsafa fanlari nomzodi

Annotatsiya: *Maqolada yoshlar huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish hamda rivojlantirishda AQSH, Yevropa Ittifoqi davlatlari va Sharq mamlakatlari tajribasi ijtimoiy-falsafiy va qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Xorijiy mamlakatlarda qo‘llanilayotgan huquqiy tarbiya modellarining mazmun-mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari atroflicha tadqiq etiladi. Tahlil natijalari Yangi O‘zbekistonda yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirishda xalqaro tajribani milliy falsafiy dunyoqarash va huquqiy islohotlar bilan uyg‘unlashtirgan holda, tanqidiy va ijodiy tatbiq etish zarurligini ko‘rsatadi. Xalqaro va milliy amaliyotning integratsiyasi yoshlarning fuqarolik faolligini oshirish hamda huquqiy demokratik jamiyatni mustahkamlashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *huquqiy ong, huquqiy madaniyat, xalqaro tajriba, xalqaro amaliyot, qiyosiy tahlil, milliy tarbiya, hamkorlik, individual yondashuv.*

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ ПРАВОВОЙ КУЛТУРЫ МОЛОДЕЖИ: ФИЛОСОФСКО-СРАВНИТЕЛНЫЙ АНАЛИЗ

Аннотация: *В стате с социально-философской и сравнителной точек зрения анализируется опыт США, стран Европейского Союза и Востока в формировании и развитии правового сознания и правовой культуры молодежи. Всесторонне исследовано содержание и специфические особенности моделей правового воспитания, применяемых в зарубежных странах. Результаты анализа показывают необходимост критического и творческого исползования международного опыта в повышении правовой культуры молодежи Нового Узбекистана путем его гармонизации с националным философским мировоззрением и правовыми реформами. Интеграция международной и natsionалной практики служит повышению гражданской активности молодежи и укреплению правового демократического общества.*

Ключевые слова: *правовое сознание, правовая культура, международный опыт, международная практика, сравнителный анализ, natsionалное воспитание, сотрудничество, индивидуалный подход.*

INTERNATIONAL EXPERIENCE IN SHAPING THE LEGAL CULTURE OF YOUTH: A PHILOSOPHICAL AND COMPARATIVE ANALYSIS

Abstract: *The article analyzes the experience of the USA, European Union countries, and Eastern nations in shaping and developing the legal consciousness and legal culture of youth from a socio-philosophical and comparative perspective. The content and distinctive characteristics of legal education models applied in foreign countries are thoroughly studied. The analysis highlights the necessity of critically and creatively applying international experience to enhance the legal culture of youth in New Uzbekistan, harmonizing it with the national philosophical worldview and legal reforms. The integration of international and national practices serves to increase the civic engagement of youth and strengthen a democratic society based on the rule of law.*

Keywords: *legal consciousness, legal culture, international experience, international practice, comparative analysis, national education, cooperation, individual approach.*

Kirish

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirish muammosi ijtimoiy-falsafiy tahlilni talab etuvchi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Globallashuv, raqamli kommunikatsiyalar, huquqiy munosabatlarning murakkablashuvi hamda ijtimoiy ongdagi transformatsiya jarayonlari yoshlarning huquqqa, qonunga va davlat institutlariga munosabatini tubdan o‘zgartirmoqda. Shu bois, mazkur masalani faqat huquqiy nuqtai nazardan emas, balki keng falsafiy-mantiqiy kontekstda tadqiq etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Yoshlar huquqiy madaniyati shaxsning huquqiy bilimlar majmu bilan cheklanib qolmasdan, uning huquqiy qadriyatlari, huquqiy tafakkuri, huquqqa bo‘lgan ehtiyoji va amaliyotda qonun normalariga rioya etish darajasini qamrab oladi. Falsafiy jihatdan esa u inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning ma’naviy-huquqiy ifodasi sifatida namoyon

boʻladi. Shu ma’noda, turli mamlakatlar tajribasini qiyosiy oʻrganish va ularning falsafiy asoslarini tahlil qilish yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirishning universal va milliy modellarini aniqlash imkonini beradi.

Huquqiy madaniyat tushunchasi falsafiy kategoriya sifatida huquq, madaniyat va ijtimoiy ong oʻrtasidagi oʻzaro aloqadorlikni ifodalaydi. Antik davr mutafakkirlari, jumladan, Platon va Aristotel oʻz asarlarida qonunni adolat va axloq bilan uzviy bogʻliq holda talqin etishgan. Ularning fikricha, qonun faqat tashqi majburlov vositasi emas, balki jamiyat ma’naviy kamolotiga xizmat qiluvchi institutdir.

Adabiyotlar tahlili

Yangi davr falsafasida I. Kant huquqni inson erkinligini ta’minlovchi aqliy me’yorlar tizimi sifatida talqin etadi. Uning ta’limotiga koʻra, huquqiy madaniyat shaxsning ma’naviy qiyofasi va mas’uliyati bilan bevosita bogʻliq.[1.62] G. Gegel esa huquqni «mutoq ruh»ning ifodasi deb bilib, huquqiy madaniyatni jamiyat taraqqiyotining zaruriy bosqichi sifatida talqin qiladi.[2.45]

Ye*vropa va AQSh mamlakatlarida yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirish tajribasi.*

Zamonaviy Yevropa mamlakatlari ijtimoiy falsafasida yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish fuqarolik jamiyatining institusional asosi sifatida qaraladi. Xususan, nemis faylasufi va sotsiologi Yu. Xabermasning «*kommunikativ harakat*» nazariyasida huquqiy me’yorlar jamiyat a’zolari oʻrtasidagi muloqot va oʻzaro kelishuv (konsensus) natijasi sifatida talqin etiladi.[3.134] Ushbu paradigmal yondashuv yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish hamda rivojlantirishda ijtimoiy muloqot, fuqarolik ishtiroki va faolligining ustuvor ahamiyatini ochib beradi

Yevropa Kengashining «*Fuqarolik va inson huquqlari ta’limi xartiyasi*»da yoshlarda huquqiy ongni shakllantirish ta’lim siyosatining ustuvor yoʻnalishi sifatida belgilangan. [4.15] Mazkur Xartiyaga koʻra, fuqarolik va inson huquqlari ta’limi demokratik qadriyatlar hamda inson huquqlari madaniyatini rivojlantirishning muhim omili boʻlib, u ta’lim oluvchilarni jamiyatda oʻz huquq va majburiyatlarini anglash, ulardan foydalanish va himoya qilishga qodir shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Rivojlangan xorij mamlakatlarida yoshlarning huquqiy madaniyatini rivojlantirish jarayoni bolalik davridan boshlanib, ta’lim tizimining barcha bosqichlarida huquqiy ongni shakllantirishga qaratilgan tizimli yondashuv asosida amalga oshiriladi. Ta’lim muassasalarida oʻquvchilarga xulq-atvor qoidalari va huquqiy normalar chuqur oʻrgatilib, egallangan huquqiy bilimlar kelgusida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va huquqiy me’yorlarni ongli ravishda oʻzlashtirish uchun mustahkam asos boʻlib xizmat qiladi. Shu bilan birga, huquqiy tarbiya qonun ustuvorligi va huquq-tartibotga nisbatan hurmat hisini shakllantirib, ijtimoiy-huquqiy tartib toʻgʻrisidagi barqaror tasavvurlarni qaror toptiradi hamda jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni samarali tartibga solishga xizmat qiladi.

XX asr oʻrtalaridan boshlab Yevropa davlatlarida amalga oshirilgan keng koʻlamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasida yagona ichki bozor, umumiy valyuta tizimi, shuningdek, ilmiy-tadqiqot va ta’lim sohasida integratsiyalashgan yagona makon shakllandi. Mazkur integratsiya jarayonlari huquqiy tizimlarni ham oʻzaro uygʻunlashtirish zaruratini yuzaga keltirib, umumiy tamoyillar va standartlarga asoslangan yagona huquqiy makonni barpo etishni taqozo etdi.

Shu maqsadda yoshlarning huquqiy ong va madaniyatini shakllantirish va yuksaltirishga qaratilgan turli umumevropa loyihalari ishlab chiqilmoqda va amalga oshirilmoqda. Chunki, jahonaro muammolar koʻlamining kengayib borishi, jamiyatning ichki hamda tashqi muammolarni hal etishda global oʻzaro bogʻliqlikning kuchayishi, zamonaviy huquq va yuridik ta’lim rivojining asosiy yoʻnalishi faqatgina milliy huquqiy tartib muammolariga e’tibor qaratishdan regional, integrasion hamda global huquqiy tartibni tartibga solish masalalariga kengroq yoʻnaltirilish tendensiyasi kuzatilmoqda. [5.152-166] Yevropa mamlakatlarida yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish va yuksaltirishda faqat milliylik doirasida cheklanib qolmasdan, balki umumevropa qadriyatlariga tayangan holda kompleks yondashuvni nazarda tutadi.

Yevropa Ittifoqi davlatlarida yoshlar huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish boʻyicha umumiy dasturlar ishlab chiqilgan. Jumladan, «*Evropa fuqaroligi*» (European Citizenship) konsepsiyasi doirasida yoshlarda huquqiy ongni shakllantirish, ularni demokratik jarayonlarga jalb etishga qaratilgan keng qamrovli loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu konsepsiya yoshlarni faqat huquq va majburiyatlar bilan tanishtirish bilan cheklanib qolmasdan, ularda fuqarolik mas’uliyati, qonunga hurmat va ijtimoiy faollikni kuchaytirishni maqsad qiladi. Xususan, Yevropa Ittifoqining *Erasmus+*, *Europe for Citizens* va *Youth in Action* kabi dasturlari orqali yoshlar inson huquqlari, qonuniylik, demokratik boshqaruv va fuqarolik ishtirokining amaliy mexanizmlari bilan yaqindan tanishtirilmoqda. Bu dasturlar doirasida yoshlarning nodavlat tashkilotlar faoliyatida ishtirok etishi, mahalliy va xalqaro darajadagi jamoatchilik tashabbuslarida qatnashishi rag‘batlantiriladi. Natijada yoshlarda huquqiy bilimlar nazariy emas, balki amaliy tajriba orqali mustahkamlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida keng tarqalgan harakatlardan biri «*Advokatsiya*» (lobbichilik/huquqlarni himoya qilish) harakati boʻlib, u jamiyatdagi ijtimoiy oʻzgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan strategik kommunikatsiya va ta’sir oʻtkazish mexanizmi hisoblanadi. Advokasiya inglizcha «advocacy» soʻzidan olingan boʻlib, himoyachilik ma’nosini

bildiradi. Advokasiya yoshlar hamda ma'lum ijtimoiy guruhlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan bo'lib, bir vaqtning o'zida bir necha ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini o'z himoyasiga olishi mumkin. Advokasiya uyushmalarining ta'sir etish ob'ekti davlat tashkilotlari bo'lib hisoblanadi. Bu uyushmaning maqsadi esa davlat tashkilotlari tuzilishida ma'lum tashkiliy o'zgarishlarni amalga oshirish bo'lib, jamiyatdagi ijtimoiy guruhlarning ehtiyoj va manfaatlari uchun xizmat qiladigan yangi g'oya va qadriyatlarni ilgari surish, qonunlarga o'zgartirish kiritish yoki qabul qilish hamda inson huquqlarini har taraflama himoya qilishga qaratilgandir. Shuningdek, yoshlar ixtiyoriy ravishda tarbiyasi og'ir, oilada yoki shaxsiy hayotida qiyin ahvolga tushib qolgan yoshlar muammolarini davlat, jamoat tashkilotlari, sud va huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlarda hal etilishida hamda ushbu toifadagi yoshlarning mazkur tashkilotlarda vakilligini ta'minlaydilar. Advokasiya orqali yoshlar o'z huquq va manfaatlarini vaqtincha uyushib barcha davlat idoralarida, asosan parlament, hokimliklar, vazirliklarda, jamoat tashkilotlarida aksiyalar orqali tizimli hal qilishadi.

Yevropa Ittifoqi davlatlarining ta'lim tizimida huquqiy tarbiyaga alohida e'tibor qaratiladi. Mazkur jarayonga davlat va mahalliy boshqaruv organlari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ta'lim muassasalari keng jalb etilgani bilan ajralib turadi. Maktab ta'lim dasturlarida huquqiy tarbiya alohida fan sifatida joriy etilgan bo'lib, u fakultativ shaklda, biroq majburiy tarzda o'qitiladi. G'arb pedagogik konsepsiyalarida huquqiy ta'lim, *bir tomondan*, jamiyatda qaror topgan siyosiy-huquqiy madaniyatning vorisi uzluksizligini ta'minlash va shu orqali uning barqaror rivojlanishini kafolatlash vositasi sifatida baholansa, *ikkinchi tomondan*, tanqidiy tafakkurga ega, konstruktiv yondashuvni namoyon eta oladigan, tolerantlik tamoyillariga amal qiladigan, mustaqil fikrlovchi hamda yuksak fuqarolik mas'uliyatiga ega yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan yaxlit pedagogik tizim sifatida talqin etiladi. Yoshlarni huquqiy tarbiyalashda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasi kompleks va tizimli xususiyatga ega bo'lib, samaradorlik nuqtai nazaridan jahon amaliyotidagi eng muvaffaqiyatli modellardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Yevropa Ittifoqi davlatlarida huquqiy ta'lim va tarbiya hamda uni joriy etish bilan bog'liq texnologiyalar bir qator xalqaro hujjatlarda aks ettirilgan prinsiplarga asoslanadi. Bular qatoriga Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948), BMTning inson huquqlari sohasida ta'lim va kasbiy tayyorgarlik deklaratsiyasi (2011), Inson huquqlari sohasida ta'lim bo'yicha Jahon dasturi (1994) hamda inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan boshqa hujjatlar kiradi. Yevropa davlatlari ushbu hujjatlarda belgilangan prinsiplarga tayanadi va shu asosda shunday ta'lim tizimi yo'lga qo'yilganki, unda yoshlarga jamiyat tizimining barcha bo'g'inlarini qamrab olgan holda insonning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqidagi bilimlarni egallashga qaratilgan ijtimoiy-gumanitar fanlar chuqur o'qitiladi. Bunday ta'lim natijasida yoshlarda huquqiy bilimlar kompleksini shakllantirish maqsad qilinadi, bu esa ularda huquqiy ongni rivojlantirib, shaxsni jamiyatda umumqabul qilingan qoidalarga rioya qilishga yo'naltirish imkonini beradi.

Tahlillar va natijalar

Hozirgi paytda Yevropa Ittifoqi tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan umumiy huquqiy tarbiya tizimini yaratishga qaratilgan yo'nalish yangi turdagi shaxs – ye*vropa fuqarosi*ni shakllantirishga yo'naltirilgan. Ushbu vazifani amalga oshirish faqatgina Yevropa Ittifoqi tarkibiga kiruvchi barcha mamlakatlar tomonidan mushtarak manfaatning namoyon etilishi hamda Yevropada va butun dunyoda yuz berayotgan jarayonlarga o'z vaqtida adekvat javob qaytarishni o'zida mujassam etadi.

Bunday huquqiy tarbiya globallashuv sharoitida Yevropa fuqarosini jahon fuqarosiga aylantirishga qodir bo'lgan milliylikdan ustun turuvchi huquqiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, ingliz tadqiqotchisi U. Tvining: «Yangi milliylikdan ustun turuvchi Yevropa va global huquqiy nazariyani, shuningdek, yangi huquqiy va konstitutsiyaviy madaniyatni shakllantirish tendensiyasi alohida ahamiyat kasb etadi» [6.256] deb ta'kidlaydi. Mazkur tendensiya yangi turdagi jahon fuqarosi shaxsini kamol toptirishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Germaniya Federativ Respublikasida yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirish jarayonlari «Law in Action» («*Huquq amaliyotida*») ta'lim dasturi hamda «Politische Bildung» (*Siyosiy ta'lim*) konsepsiyasi asosida tizimli ravishda amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv yoshlarning huquqiy bilimlarini faqat nazariy darajada emas, balki real ijtimoiy-huquqiy vaziyatlar orqali anglashini ta'minlashga qaratilgan. Mazkur tizim doirasida yoshlar qonun ustuvorligi, konstitusion tartib, inson huquqlari va fuqarolik jamiyatining asosiy tamoyillarini nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy faoliyat orqali o'zlashtirishga qaratilgan. Nemis olimlari huquqiy madaniyatni nafaqat qonun va huquqiy normalarga rioya qilish, balki huquqiy qadriyatlar, tamoyillar hamda demokratik g'oyalarni shaxs tomonidan ongli ravishda anglash, qabul qilish va hayotda tatbiq etish jarayoni sifatida baholaydilar [7.55]. Shuning uchun ta'lim muassasalarida munozaralar, simulyasion sud jarayonlari, parlament modellari va ijtimoiy loyihalar keng qo'llaniladi. Bu esa huquqiy bilimlarni amaliy tajriba bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Germaniya tajribasining muhim xususiyati shundaki, huquqiy ong faqat davlat siyosati natijasi emas, balki jamiyatning umumiy huquqiy madaniyati mahsuli sifatida qaraladi.

Fransiyada yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirish «*Éducation morale et civique*» (*fuqarolik va axloq ta'limi)* orqali amalga oshiriladi. Bu fan doirasida yoshlarda respublika qadriyatlari, qonun oldida tenglik, inson huquqlariga hurmat va

ijtimoiy adolat g‘oyalari shakllantiriladi. Fransuz ma’rifatparvarlari J.J. Russo va Sh. Monteskyo asarlarida qonun xalq irodasining ifodasi sifatida talqin qilinadi.[8.54-57] Mazkur falsafiy qarashlar zamonaviy Fransiya huquqiy ta’lim tizimida o‘z aksini topgan. Fransiya tajribasida huquqiy madaniyat milliy o‘zlik va fuqarolik identifikatsiyasi bilan bog‘liq holda rivojlantiriladi. Yoshlar davlat ramzlari, milliy tarix va demokratik qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalanadi. Bu esa huquqiy ongning fuqarolik ongi bilan integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

Skandinaviya mamlakatlarida (Shvesiya, Norvegiya, Finlyandiya) yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirish ijtimoiy tenglik, ishonch va shaffoflik qadriyatlariga asoslanadi. Bu mamlakatlarda huquqiy madaniyat yuqori ijtimoiy ishonch darajasi bilan bog‘liq bo‘lib, yoshlar qonunni tashqi majburlov emas, balki jamiyat manfaatini ta’minlovchi vosita sifatida qabul qiladilar. Skandinaviya modeli ijtimoiy davlat falsafasiga tayanadi.

AQShda yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirish amaliyoti pragmatizm falsafasi bilan uzviy bog‘liq holda rivojlangan. Amerikalik faylasuf Jon Dyui ta’lim va ijtimoiy tajriba o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni asoslab, huquqiy bilim faqat nazariy emas, balki amaliyot orqali o‘zlashtirilganda barqaror huquqiy ong shakllanishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, demokratiya faqat davlat boshqaruvi shakli emas, balki hayot tarzi bo‘lib, har bir fuqaro, ayniqsa, yoshlar, huquqiy munosabatlarda faol ishtirok etishi lozim. [9.76-78]

AQSh ta’lim tizimida huquqiy tarbiya va ta’lim asosan «*Civic Education*» (*fuqarolik ta’limi*) hamda «*Law-related Education*» (*huquqiy ta’lim*) dasturlari negizida tashkil etilgan bo‘lib, mazkur dasturlar fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishning muhim pedagogik mexanizmlari sifatida e’tirof etiladi. Ushbu dasturlar yosh avlodning huquqiy bilimlari, huquqiy tafakkuri va fuqarolik mas’uliyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, ta’lim jarayonida o‘quvchilar konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar, davlat hokimiyati tizimi, sud-huquq institutlari, fuqarolik burchlari hamda inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlari haqidagi bilimlarni egallaydilar. Shu bilan birga, huquqiy ta’limning amaliy yo‘naltirilganligiga alohida e’tibor qaratilib, o‘qitish jarayoni keys-tahlil, munozaralar, rolli o‘yinlar va modellashtirilgan sud jarayonlari (mock trial) kabi interaktiv metodlar asosida tashkil etiladi. Bu esa o‘quvchilarda huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish va huquqiy qadriyatlarni anglash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish hamda rivojlantirish nuqtai nazaridan mazkur dasturlarning mazmun-mohiyatini falsafiy-huquqiy jihatdan baholaydigan bo‘lsak, ushbu model individual erkinlik va shaxsiy mas’uliyatning o‘zaro uyg‘unligi tamoyiliga asoslanadi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, shaxsga keng huquq va erkinliklar berish bilan bir qatorda, ulardan oqilona foydalanish, qonunlarga rioya etish hamda jamiyat oldidagi fuqarolik burchlarini ado etish mas’uliyati ham yuklatiladi. Shu bois huquqiy ta’lim jarayonida nafaqat huquqiy bilimlarni o‘zlashtirish, balki huquqiy qadriyatlarni anglash, huquqiy tafakkurni rivojlantirish va huquqiy xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirishga ham alohida e’tibor qaratiladi. Natijada huquqiy madaniyat qonun talablariga formal rioya qilish darajasidan yuqoriroq bosqichga ko‘tarilib, shaxsning huquqiy e’tiqodi va fuqarolik pozitsiyasining muhim tarkibiy qismiga aylanadi. Amerikalik huquqshunos olim R. Dvorkinning ta’limotiga ko‘ra, huquq inson qadr-qimmatini ta’minlashga xizmat qilishi lozim. [10.176] Bu g‘oya yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda qadriyatli yondashuvni mustahkamlaydi.

Yaponiya, Janubiy Koreya va Xitoyda yoshlar huquqiy madaniyati: konfusiylik an’anasi va zamonaviy huquq.

Yaponiya yoshlar huquqiy madaniyatni shakllantirishda milliy an’analar va zamonaviy demokratik qadriyatlarni uyg‘unlashtirgan davlatlardan biri hisoblanadi. Yapon ta’lim tizimida huquqiy tarbiya axloqiy tarbiya bilan chambarchas bog‘langan. Yoshlarga huquqiy bilim berish bilan bir qatorda jamoaga hurmat, mas’uliyat, intizom va burch hissiy singdiriladi. Yaponiya modelida huquqiy madaniyatning asosiy manbasi tashqi nazorat emas, balki ichki mas’uliyat hisobiga ta’minlanadi. Bu holat huquqiy ongning axloqiy ong bilan integratsiyalashuvini ko‘rsatadi. Shu bois yapon yoshlari o‘rtasida huquqbuzarlik darajasi nisbatan past hisoblanadi.

Janubiy Koreya tajribasi ham yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish sohasida alohida ahamiyatga ega. Mazkur mamlakatda huquqiy ta’lim tizimi raqamli texnologiyalar bilan samarali integratsiya qilingan bo‘lib, bu huquqiy bilimlarning ommaviyligi va ochiqligini ta’minlashga xizmat qiladi. Maktablar va oliy ta’lim muassasalarida joriy etilgan elektron ta’lim platformalari orqali inson huquqlari, konstitutsiyaviy huquq, fuqarolik mas’uliyati hamda demokratik qadriyatlarga bag‘ishlangan maxsus o‘quv kurslari tashkil etilgan.[11.15] Bunday yondashuv ta’lim oluvchilarning huquqiy bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish bilan bir qatorda, ularda raqamli huquqiy savodxonlikni ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Falsafiy-huquqiy nuqtai nazardan qaralganda, Janubiy Koreya modeli huquqiy madaniyatni shakllantirishda bilimlar translyatsiyasi bilan cheklanib qolmasdan, shaxsning huquqiy qadriyatlarni anglashi va ularni kundalik hayotida qo‘llash kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Ushbu yondashuv axborotlashgan jamiyat sharoitida huquqiy madaniyatni rivojlantirishning innovasion modeli sifatida namoyon bo‘lib, yoshlarning huquqiy ongi, fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy mas’uliyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xitoy Xalq Respublikasida yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanadigan ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda huquqiy ta’lim tizimi «*qonun ustuvorligi*» tamoyilini qaror toptirish hamda huquqiy davlat qurish strategiyasi bilan uzviy bog‘liq holda rivojlantirilmoqda. Maktablar va oliy ta’lim muassasalarida huquq asoslari, Konstitutsiya, fuqarolik huquqlari va majburiyatlari, milliy qonunchilik hamda huquqiy mas’uliyat masalalariga bag‘ishlangan maxsus o‘quv kurslari joriy etilgan. Shuningdek, huquqiy targ‘ibot ishlari ommaviy axborot vositalari, raqamli platformalar va jamoat tashkilotlari orqali keng amalga oshiriladi.

Xitoy tajribasining o‘ziga xos xususiyati huquqiy ta’limning jamoaviy manfaatlar va ijtimoiy barqarorlik g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirilganligida namoyon bo‘ladi. Unda huquqiy madaniyat nafaqat shaxsning huquq va erkinliklarini anglashi, balki uning jamiyat va davlat oldidagi mas’uliyatini his qilishi bilan ham bog‘lanadi. Shu nuqtai nazardan, huquqiy ta’lim fuqarolarda qonunlarga hurmat, ijtimoiy tartib-intizomga rioya qilish va davlat manfaatlariga daxldorlik tuyg‘usini shakllantirishning muhim vositasi sifatida qaraladi.

Falsafiy-huquqiy jihatdan baholanganda, Xitoy modeli huquqiy madaniyatni rivojlantirishda individual huquqlar va jamoaviy manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga intiladi. Mazkur yondashuv huquqiy ongni shakllantirishda huquqiy bilimlarni egallash bilan bir qatorda, ijtimoiy mas’uliyat, intizom va qonunga itoatkorlik kabi qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Germaniya, Fransiya, AQSh, Finlyandiya, Yaponiya va Janubiy Koreya, Xitoy tajribalari o‘rtasida muayyan umumiyliklar mavjud. *Birinchidan*, barcha mamlakatlarda huquqiy ta’lim uzluksiz xarakterga ega. *Ikkinchidan*, huquqiy bilimlar fuqarolik qadriyatlari bilan uyg‘unlashtiriladi. *Uchinchidan*, huquqiy ongni shakllantirishda amaliy ishtirok va demokratik muhit muhim ahamiyat kasb etadi. *To‘rtinchidan*, inson huquqlari va qonun ustuvorligi barcha modellarning asosiy qadriyatlari hisoblanadi.

Islom sivilizatsiyasiga mansub mamlakatlarda yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirish jarayonida huquq, axloq va din o‘rtasidagi uyg‘unlik ustuvor ahamiyat kasb etadi. Islom huquq falsafasiga ko‘ra, qonun adolatni ta’minlash vositasi bo‘lib, insonning ma’naviy kamoloti bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu yondashuv yoshlarda huquqiy ongni shakllantirishda ma’naviy mas’uliyat va jamiyat oldidagi burch tuyg‘usini kuchaytirishga xizmat qiladi. Al-Forobiy, Ibn Sino va Ibn Xaldun asarlarida huquq ijtimoiy tartib va axloqiy muvozanatni ta’minlovchi vosita sifatida talqin etiladi.[12.112-118]

Zamonaviy musulmon mamlakatlarida yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirishda islom axloqi, milliy an’analar va zamonaviy huquq normalari integratsiya qilinmoqda. Bu yondashuv yoshlarda huquqiy mas’uliyat bilan birga ma’naviy javobgarlikni ham shakllantiradi.

Rossiya va MDH mamlakatlarida yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirish jarayoni postsovet transformatsiya jarayonlari bilan bog‘liq. Bu davlatlarda huquqiy madaniyatni rivojlantirish demokratik institutlarni mustahkamlashning muhim sharti sifatida qaraladi. Rossiyalik faylasuf V.S. Nersesyans huquqni erkinlikning institusional shakli sifatida talqin qilib, huquqiy madaniyatni shaxs huquqiy ongining yuksak bosqichi deb hisoblaydi.[13.102-103]

Xalqaro tajribani falsafiy qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, har bir mamlakatda yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirishning o‘ziga xos modeli mavjud bo‘lib, G‘arb mamlakatlarida huquqiy madaniyat individual huquq va erkinliklar ustuvorligiga asoslansa, Sharq va islom sivilizasiyasida jamoaviy mas’uliyat va axloqiy qadriyatlar yetakchi o‘rin tutadi. Mazkur farqlar falsafiy dunyoqarash, tarixiy taraqqiyot va madaniy an’analar bilan belgilanadi. Xorij tajribalarini mexanik tarzda boshqa jamiyat va davlatga tadbiq etish maqsadga muvofiq bo‘lmaydi. Chunki har bir xalqning, millatning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li mavjud. Shu bois, xalqaro tajribadan foydalanishda milliy qadriyatlar, tarixiy tajriba va ijtimoiy ehtiyojlarni inobatga olgan holda integrativ yondashuvni qo‘llash zarur.

Xulosa

O‘zbekiston uchun ilmiy xulosa va konseptual takliflar.

1. Huquqiy madaniyatning integrativ modelini joriy etish zarurligi. Xorijiy tajribalar – Germaniyada «*Law in Action*» va «*Politische Bildung*», Fransiyada «*Éducation morale et civique*», AQShda «*Pragmatizm falsafasi*» asosidagi huquqiy ta’lim va Islom sivilizatsiyasidagi axloq va qonun uyg‘unligi – yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirishda nazariy va amaliy yo‘nalishlarni birlashtirish samarali ekanini ko‘rsatadi. Shu bois, O‘zbekistonda ham huquqiy bilim, fuqarolik mas’uliyati va ma’naviy qadriyatlarni integrativ asosda o‘rgatish zarur.

2. Nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish. AQSh va Germaniya tajribalari shuni ko‘rsatadiki, huquqiy bilim faqat nazariydan ko‘ra, amaliy tajriba, munozaralar, modellashtirilgan sud jarayonlari va ijtimoiy loyihalar orqali yaxshiroq o‘zlashtiriladi. Bu yoshlarda huquqiy ongning barqaror shakllanishi va faol fuqarolik pozitsiyasini ta’minlaydi.

3. *Yoshlar shaxsiy mas’uliyatini axloqiy qadriyatlar bilan birgalikda rivojlantirish.* Dyui va Dvorkin ta’limotlari huquq va demokratiyani inson qadr-qimmati, individual erkinlik va shaxsiy mas’uliyat bilan uzviy bog‘laydi. Bu huquqiy

madaniyatni shakllantirishda faqat qonunlarni o‘rgatish bilan cheklanmasdan, yoshlarning faollik va axloqiy mas’uliyatini rivojlantirish muhimligini ko‘rsatadi.

4. Yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirishda madaniy va diniy kontekstni hisobga olish zarur. Islom siviliztasiyasi va milliy tarixi yuksak qadriyatlar va axloq tamoyillarini huquqiy madaniyat bilan uyg‘unlashtirishning muhimligini ko‘rsatadi. Bu O‘zbekistonda huquqiy ta’limni milliy qadriyatlar va ma’naviy an’analar bilan boyitish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tajriba huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirishning muvaffaqiyati huquqiy bilimlarni oshirish bilangina emas, balki huquqiy qadriyatlarni shaxs ichki e’tiqodiga aylantirish, demokratik ishtirokni ta’minlash va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish bilan belgilanishini ko‘rsatadi. Xorijiy mamlakatlarning huquq tizimida to‘plangan nazariy qarashlar va amaliy tajribalarni tahlil qilar ekanmiz, ularni mexanik tarzda qabul qilish tarafdori emasmiz. Mazkur tajribalarni milliy ijtimoiy-madaniy muhit, tarixiy taraqqiyot xususiyatlari hamda jamiyatning ma’naviy-axloqiy asoslarini inobatga olgan holda qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar huquqiy madaniyatini rivojlantirishda xalqaro tajribadan tanqidiy va ijodiy foydalanish, uni milliy falsafiy dunyoqarash va huquqiy islohotlar bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa yoshlarning huquqiy ongini yuksaltirish, fuqarolik faolligini oshirish va demokratik jamiyat barpo etishga xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кант И. Ҳуқуқ метафизикасига кириш. – Т.: Фан, 2007. – Б. 62.

2. Руссо. Ж.Ж. Ижтимоий шартнома ёки сиёсий ҳуқуқлар принциплари ҳақида. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 2010. – Б. 45.

3. Хабермас. Ю. Коммуникатив амалий ақл назарияси. – Т.: Академнашр, 2012. – Б. 134.

4. Yevropa Kengashi. Charter on Education for Democratic Citizenship and Human Rights Education. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2010. – 15 p.

5. Кашкин С. Ю. Влияние интеграционного права на совершенствование юридического образования и просвещения в Российской Федерации // Современные технологии правового просвещения молодежи: зарубежный и отечественный опыт. Монография. - М., 2020. С. 152–166.

6. Twining W. Globalization and Legal Theory. Cambridge, 2000. 256 p.

7. Bundeszentrale für politische Bildung. Civic Education in Germany. – Bonn, 2020. – P. 55.

8. Руссо Ж.Ж. Ижтимоий шартнома ёки сиёсий ҳуқуқ принциплари / франц. тилидан таржима. – Т: Фан, 1997. – Б. 54–57. Монтескьё Ш. Қонунлар руҳи ҳақида / франц. тилидан таржима. – Т: Фан, 2001. – Б. 112–118.

9. Дьюи Дж. Демократия и образование / пер. с англ. – Т: 2000. – С. 76–82.

10. Дворкин Р. О правах всерьёз / пер. с англ. – М.: Российская политическая энциклопедия., 2004. – С. 164–176.

11. South Korea Ministry of Education. Citizenship Education Policy. – Seoul, 2019. – P.15.

12. Ал-Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри / араб тилидан таржима. – Т: Фан, 1993. – Б. 78–85. Ибн Сино Абу Али. Донишнома (ёки Китоб уш-шифо: ижтимоий-ахлоқий қисмлар) / араб тилидан таржима. – Т: Фан, 1980. – Б. 112–118. Ибн Халдун. Муқаддима / араб тилидан таржима. – Т: Фан, 1997. – Б. 146–152.

13. Нерсесянц В.С. Философия права: Учебник для вузов. – М.: Норма, 1997. – С. 102–103.